



**TOSHKENT SHAHAR MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
BOSHQARMASI BOSHLIG'I HAMDA
TOSHKENT SHAHRIDAGI ADJU UNIVERSITETI REKTORINING
QO'SHMA QARORI**

**Toshkent shahridagi Adju universiteti rektori olimpiadasini o'tkazish
to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyunda "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6017-son Farmoni, 2020-yil 6-noyabrda "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4884-son qarori, 2018-yil 30-noyabrda "Toshkent shahridagi Adju universitetini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4041-son qarorlarida belgilangan vazifalar hamda umumta'lim maktablarida aniq, tabiiy fanlar va xorijiy tillarni o'qitish samaradorligini oshirish, o'qitish sifati bo'yicha xalqaro mezon va standartlarga muvofiq yuqori ko'rsatkichlarga erishishga zamin yaratish maqsadida **qaror qilamiz:**

1. Toshkent shahridagi umumta'lim maktablarining 11-sinf o'quvchilari o'rtasida **matematika fanidan ingliz tilida** Toshkent shahridagi Adju universiteti rektori olimpiadasi (keyingi o'rinlarda – olimpiada) o'tkazilsin.

2. Quyidagilar:

- olimpiada Nizomi (keyingi o'rinlarda – Nizom) 1-ilovaga;
- olimpiadani tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. **Olimpiada 2024-yilning 18-may kuni Adju universitetida tashkil qilinsin va o'tkazilsin.**

4. Tashkiliy qo'mitaga:

- olimpiada o'tkaziladigan joyda zarur shart-sharoitlar yaratish;
- hakamlar hay'ati tarkibi, apellyatsiya komissiyasi a'zolari, nazoratchilar ro'yxatini shakllantirish va tasdiqlash;
- olimpiada materiallarining maxfiylikini ta'minlash hamda olimpiadani Nizom talablari asosida o'tkazish;
- olimpiada tashkil etilishi, o'tkazilishi va natijalari to'g'risida ommaviy axborot vositalarida yoritib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Barcha tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari boshliqlariga:

- olimpiada ishtirokchilari ro'yxatini shakllantirish hamda joriy yilning 6-may sanasiga qadar tashkiliy qo'mitaga taqdim etish;